



## Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda moliyaviy bilimning ahamiyati va muvaffaqiyatga erishishdagi roli

Zafarova Azizaxon  
Shuxrat qizi

TDIU Moliya fakulteti MMT-59/24 guruh talabasi  
zafarovaaziza8@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda moliyaviy savodxonlikning roli va jamiyatdagi gender tafovvti bilan bog'liq tizimli muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari xotin-qizlarning moliyaviy bilimlarini oshirish milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini yuksaltirishning strategik omili ekanligini asoslaydi.

Kalit so'zlar

Iqtisodiy mustaqillik, moliyaviy savodxonlik, gender tafovvti, moliyaviy bilim, tadbirkorlik rentabelligi, investitsion faollik.

## The Importance of Financial Knowledge in Ensuring Women's Economic Independence and Achieving Success

Zafarova Azizakhon Shukhrat kizi  
2nd year student of TSUE  
zafarovaaziza8@gmail.com

**Abstract.** This article analyzes the role of financial literacy in ensuring women's economic independence and examines systemic problems related to gender inequality in society. The research findings demonstrate that improving women's financial knowledge is a strategic factor in ensuring national economic stability and enhancing overall societal well-being.

**Keywords:** Economic independence, financial literacy, gender gap, financial knowledge, entrepreneurial profitability, investment activity.

### Kirish.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar natijasida raqamli moliya va texnologiyalar ustuvor rivojlanish yo'nalishiga aylanib, ayollarning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish masalasini muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa sifatida belgilamoqda[1]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD) tomonidan 2024-2025 yillar davomida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan ayollar inqirozli davrlarda oilaviy

budjet barqarorligini ta'minlashda erkaklarga nisbatan 15% ga samaraliroq harakat qilishdi [2].

Global miqyosda gender farqini (Gender gap) qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida, agar ayollarning kapital bozoridagi ishtiroki 2030 yilgacha erkaklar ko'rsatkichiga yaqinlashsa, bu jahon iqtisodiyotiga qo'shimcha 28 trillion dollar miqdorida qiymat qo'shishi prognoz qilinmoqda [3]. Biroq, Xalqaro valyuta jamg'armasi(IMF) ma'lumotlariga ko'ra, hozirda dunyo bo'ylab ayollarning bor-yo'g'i 30% ga yaqini murakkab moliyaviy mahsulotlar va investitsiyaviy risklarni mustaqil baholash ko'nikmasiga ega [4].

O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha bo'lgan Ijtimoiy himoya strategiyasi doirasida xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan [1]. Markaziy bank tomonidan 2025 yil yakunlari bo'yicha e'lon qilingan hisobotda qayd etilishicha, mamlakatimizda ayollar o'rtasida mikrokredit olish darajasi yuqori bo'lsa-da, uzoq muddatli jamg'arma va sug'urta mahsulotlaridan foydalanish ko'rsatkichi pastligicha qolmoqda. Bu esa ayollarning moliyaviy savodxonligini oshirish nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki milliy iqtisodiy xavfsizlik masalasi ekanligini tasdiqlaydi [5].

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Ayollarning moliyaviy savodxonligi va iqtisodiy mustaqilligi masalasi zamonaviy iqtisodiyot fanida nafaqat bilim darajasi, balki jamiyatning ijtimoiy-psixologik manzarasi sifatida tadqiq etilmoqda. Akademik doiralarda ushbu yo'nalishning fundamental asoslarini Annamaria Lusardi (George Washington University) va Olivia Mitchell (Wharton School) yaratgan deb hisoblanadi. Ularning ko'p yillik izlanishlari shuni ko'rsatadiki, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham ayollar murakkab moliyaviy savollarga, xususan, inflatsiya va risklarni diversifikatsiya qilish masalalariga javob berishda erkaklarga qaraganda o'rtacha 15-20% pastroq ko'rsatkich qayd etishadi [6]. Biroq, tadqiqotchilar bu tafovutning tub mohiyatiga e'tibor qaratib, ayollarning "Bilmayman" javobini tanlashga ko'proq moyilligini aniqlashgan. Bu holat bilimning mutlaq yo'qligidan emas, balki moliyaviy o'z-o'ziga ishonchning yetishmasligidan dalolat beradi. Ya'ni, ayollarda moliyaviy qaror qabul qilishda xato qilishdan qo'rqish hissi yuqori, bu esa ularning iqtisodiy mustaqillikka erishish yo'lidagi birinchi psixologik to'sig'idir.


Moliyaviy savodxonlik muvaffaqiyatga erishishda shunchaki nazariy vosita emas, balki shaxsning xulq-atvori bilan chambarchas bog'liqdir. Morgan Housel o'zining "The Psychology of Money" asarida moliyaviy muvaffaqiyat intellektga emas, balki aynan xulq-atvoriga bog'liqligini isbotlaydi [7]. Uning qarashlariga ko'ra, ayollar tabiatan uzoq muddatli rejalashtirishga, sabr-toqatga va hissiy qarorlardan qochishga moyil bo'lganliklari sababli, agar ular da bilim bazasi mustahkamlansa, ular erkaklarga nisbatan muvaffaqiyatliroq investorga aylanishi mumkin. Bu jarayonda ayollarning riskni boshqarishdagi ehtiyotkorligi uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy drayver bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro miqyosda ayollarning moliyaviy savodxonligi darajasini baholashda asosan uchta fundamental savol (Big Three) - murakkab foiz, inflatsiya va risklarni diversifikatsiya qilish tushunchalari o'lchov birligi sifatida olinadi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha global gender tafovuti ayollarning iqtisodiy mustaqilligiga

bevosita ta'sir o'tkazadi. Quyidagi jadvalda dunyo bo'yicha ayollar va erkaklarning ushbu fundamental tushunchalarni anglash darajasi aks etgan:

1-jadval.

Moliyaviy tushunchalar bo'yicha gender tafovvti (global o'rtacha ko'rsatkich)



1-diogramma. S&P Global Global Financial Literacy Survey (2015) ma'lumotlari asosida tayyorlandi [8].

O'zbekiston sharoitidagi tadqiqotlar ham ushbu global tendensiyalarni milliy xususiyatlar bilan tasdiqlaydi. Mahalliy tadqiqotchi N.M.Muradova va uning hamkasblari O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy savodxonlikning o'rnini o'rganib, muhim statistik qonuniyatni aniqlashgan: ayollarning moliyaviy bilimi 10% ga oshishi, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarining rentabelligini o'rtacha 7-8% ga ko'taradi. Shunga qaramay, 2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida ayollar tomonidan ochilgan depozitlar hajmi barqaror ortgan bo'lsa-da, ularning fond bozorida ishtiroki hali ham 5% dan past darajada qolayotgani, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashda hali o'zlashtirilmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi [9]. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda moliyaviy bilim shunchaki yordamchi omil emas, balki shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiruvchi va iqtisodiy xavf-xatarlardan himoya qiluvchi asosiy qalqondir. Ayollarning tabiatidagi hissiy barqarorlik va uzoq muddatli rejalashtirish qobiliyati zamonaviy moliyaviy bilimlar bilan birlashsa, bu nafaqat ayolning shaxsiy muvaffaqiyati, balki butun milliy iqtisodiyotning sifat jihatidan o'sishiga xizmat qiladi.

Moliyaviy savodxonlik fenomenini o'rganishda xulq-atvor iqtisodiyoti va gender psixologiyasi markaziy o'rin egallaydi. Nobel mukofoti sovrindori Richard Thaler o'zining "Nudge" nazariyasida insonlar moliya masalalarida har doim ham

ratsional emasligini, balki ijtimoiy “turtki”lar ta’sirida qaror qabul qilishini isbotlagan [10]. Ayollar kontekstida ushbu “turtki” ko’pincha jamiyatdagi madaniy stereotiplar orqali namoyon bo’lib, ularning moliyaviy qaror qabul qilishdagi mustaqilligini pasaytiradi. Iqtisodchi Marianne Bertrand gender tafovutining ildizlarini tadqiq qilib, ayollarda kuzatiladigan yuqori “riskdan qochish” darajasi biologik omil emas, balki ijtimoiy muhit va moliyaviy ta’limning yetishmasligi mahsuli ekanligini ko’rsatib o’tgan [11]. Bu holat ayollarning moliya bozorini "notanish va xavfli hudud" deb qabul qilishiga sabab bo’ladi. Annamaria Lusardi va Olivia Mitchellning fundamental tadqiqotlari esa aynan “Big Three” (inflatsiya, murakkab foiz va diversifikatsiya) bilimlarining yetishmasligi ayollarni uzoq muddatli kapital yaratish imkoniyatidan mahrum qilishini tasdiqlaydi. Ushbu global nazariyalarni O’zbekiston iqtisodiyoti kontekstida boyitgan tadqiqotchi N.M. Muradova ayollar tadbirkorligi va moliyaviy bilim o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Muradova o’z ilmiy ishlarida milliy mentalitetda ayollarning “tejamkor” roli strategik “investor” roliga aylanishi uchun tizimli moliyaviy ta’lim zarurligini asoslaydi. Muallif tomonidan aniqlangan statistik qonuniyatga ko’ra, ayollarning moliyaviy bilimi darajasi har 10 foizga oshganda, ular boshqarayotgan biznes sub’ektlarining rentabelligi o’rtacha 7-8 foizga ko’tarilishi kuzatilgan [9].


#### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada ayollarning moliyaviy savodxonligi va iqtisodiy mustaqilligi o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganishda tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullari qo’llangan. Xalqaro tajriba, moliyaviy xulq-atvor indikatorlari va milliy iqtisodiyotdagi statistik qonuniyatlar tahlil qilinib, tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.

#### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O’zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bugungi kundagi makroiqtisodiy islohotlarning o’zagini tashkil etadi. Biroq, Jahon bankining “Uy xo’jaliklari byudjeti tahlili” (Household Budget Survey) natijalari shuni ko’rsatadiki, ayollarning moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki ularning mehnat bozoridagi mavqei va daromad darajasi bilan bevosita cheklangan [7]. Mamlakatimizda ayollar bandligi va daromadlarining taqsimlanishidagi tizimli muammolar shuni ko’rsatadiki, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlari erkaklarnikiga nisbatan sezilarli darajada past bo’lib, bu holat bevosita mehnat bozoridagi gender tafovuti va ijtimoiy normalar bilan uzviy bog’liqlikda namoyon bo’lmoqda.

Olingan statistik ma’lumotlar asosida olib borilgan tahlillar O’zbekistonda gender asosidagi ish haqi tafovuti nafaqat saqlanib qolayotganini, balki global o’rtacha ko’rsatkichlardan ham yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, 2022-yil holatiga ko’ra, erkaklar ayollarga qaraganda o’rtacha 34% ko’proq daromad topishgan bo’lib, bu ayollarning real daromadi erkaklar ish haqining atigi 66%ini tashkil etishini anglatadi. Vaholanki, global miqyosda bu ko’rsatkich o’rtacha 80% atrofida shakllangan bo’lib, O’zbekistondagi tafovutning kattaligi ayollarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligiga jiddiy zarba bermoqda.



Jahon banki xodimlarining 2022-yilgi Uy xo'jaliklari byudjeti so'rovi ma'lumotlari asosida hisob-kitoblari [12].

Jahon banki tahlillaridan ko'rinib turibdiki, ayollar asosan past daromadli segmentda to'plangan. Respondent ayollarning 15%i 1 million so'mdan kam ish haqi olayotgan bir paytda, erkaklar orasida bu ko'rsatkich atigi 4%ga teng. Eng katta va xavotirli nomutanosiblik 1-2 million so'm oralig'idagi daromad guruhida kuzatiladi — barcha ishlovchi ayollarning 50%i aynan shu guruhga to'g'ri keladi. Aksincha, yuqori daromadli (5 million so'mdan ko'p) guruhda erkaklar ulushi ayollardan 6 barobar ko'proq ekanligi ya'ni erkaklar 6%, ayollar 1%ligi, ayollarning uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish, jamg'arma shakllantirish va investitsiya qilish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Ushbu iqtisodiy nomutanosiblikning asosiy sabablaridan biri sifatida mehnat bozoridagi chuqur kasbiy segmentatsiyani ko'rsatish mumkin. Ayollar asosan ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat kabi davlat tomonidan tartibga solinadigan, biroq daromad darajasi nisbatan past sohalarda band. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu tarmoqlardagi o'rtacha ish haqi qurilish, transport va saqlash kabi erkaklar ustun bo'lgan sohalardagi daromadning deyarli yarmini tashkil etadi. Shuningdek, 2020-yilda o'tkazilgan eksperimental audit tadqiqotlari ishga qabul qilish jarayonida ham erkaklarga (79% holatda) ayollarga nisbatan ko'proq imkoniyat berilishini aniqlagan, bu esa ayollarning yuqori daromadli sohalarga kirishini qiyinlashtirmoqda [13].

Bundan tashqari, ijtimoiy normalar va uy yumushlari yukining teng taqsimlanmaganligi ham ayollarning moliyaviy mustaqilligiga to'siq bo'luvchi

fundamental omildir. Statistik tahlillarga ko'ra, ayollarning 75%i uy ishlari va oila a'zolarini parvarishlash bilan band bo'lgan bir paytda, erkaklarda bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 8%ni tashkil etishi mehnat bozoridagi real imkoniyatlarni cheklaydi. Ayollarning o'rtacha ish haqi kutish darajasi ham erkaklarnikiga nisbatan sezilarli darajada past ekanligi aniqlangan, bu esa ularning moliya bozoridagi sub'ekt sifatida o'z huquqlarini himoya qilish darajasi pastligidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender tengligiga erishish nafaqat ijtimoiy, balki ulkan iqtisodiy samaraga ega: agar ayollar mehnat bozorida erkaklar bilan teng darajada ishtirok etsa, O'zbekistonning milliy daromadi 29%ga o'sishi mumkin. Daromadlar darajasini tenglashtirish va ayollar bandligini oshirishning o'zi mamlakatda 700,000 dan ortiq kishini kambag'allik chegarasidan olib chiqish imkonini beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini shunchaki huquqiy tushuncha yoki ijtimoiy maqsad emas, balki aniq iqtisodiy mexanizmlar asosida shakllanadigan strategik jarayon sifatida ko'rish lozim. Tadqiqot davomida aniqlangan daromadlar farqi va vaqt resurslarining noteng taqsimlanishi ayollarni "iqtisodiy cheklanganlik" holatida ushlab turuvchi asosiy omillar ekanligi o'z isbotini topdi. Ushbu tizimli to'siqlarni bartaraf etish nafaqat ayollarning hayot sifatini yaxshilaydi, balki inson kapitalining iqtisodiy qaytimini (ROI) yangi bosqichga olib chiqadi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun, eng avvalo, mehnat bozorida ayollarni an'anaviy past rentabelli sohalardan yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi texnologik tarmoqlarga o'tkazish bo'yicha maqsadli qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu jarayon shunchaki o'qitish bilan cheklanib qolmay, ish beruvchilar orasida ayollar salohiyatiga nisbatan shakllangan stereotiplarni akademik va korporativ auditlar orqali sindirishni nazarda tutadi. Daromadlar darajasining bosqichma-bosqich tenglashishi mamlakatda iste'mol talabini oshirib, 700 000 dan ortiq aholini kambag'allik chegarasidan olib chiqishda asosiy "lift" vazifasini o'taydi.

Shu bilan birga, ayollarning iqtisodiy faolligiga eng katta to'siq bo'layotgan uy yumushlari yukini ijtimoiy infratuzilmani biznes manfaatlariga moslashtirish orqali yengillashtirish lozim. Yirik korxonalar va industrial zonalar hududida maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkil etilishi ayollarga o'z intellektual salohiyatini daromadga aylantirish uchun zarur bo'lgan "vaqt kapitali"ni taqdim etadi. Moliyaviy savodxonlikni oshirishda esa nazariy darslardan ko'ra, Richard Talerning "turtki" nazariyasiga tayangan holda, ayollarning moliyaviy qaror qabul qilishdagi ehtiyotkorligini "riskni oqilona boshqarish"ga aylantiruvchi raqamli moliya instrumentlarini ommalashtirish zarur. Bu chora ayollarning kapital bozoridagi passiv ishtirokini faol investitsion faoliyatga aylantirish imkonini beradi.

Ayniqsa, xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda moliyaviy resurslarni professional mentoring va strategik kouching xizmatlari bilan birgalikda taqdim etish biznes sub'ektlarining hayotiylik darajasini oshiradi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, moliyaviy bilim bazasining har bir birlikka oshishi tadbirkorlik rentabelligini geometrik progressiyada oshiruvchi kuchga ega. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, ayollarning iqtisodiy sub'ekt sifatida tan olinishi va ularning

moliyaviy bilimlarini real iqtisodiy qiymatga aylantirish uchun tizimli sharoit yaratilishi O'zbekiston milliy daromadini 29 foizga oshirishning eng asosiy drayveridir. Faqatgina ushbu tarkibiy to'siqlarni olib tashlash orqali ayollar jamiyatning yordamga muhtoj qatlamidan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va barqaror yuksalishini ta'minlovchi yetakchi kuchga aylana oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (25.07.2022 yildagi PF-160-son, 2030-yilgacha bo'lgan strategiya ilovasi bilan). Lex.uz
2. OECD (2025). OECD Recommendation on Financial Literacy and Gender Equality: Policy Guidance for the Next Decade. OECD Publishing, Paris.
3. McKinsey Global Institute (2023). The Power of Parity: Advancing Women's Equality in the Post-Pandemic Economy. McKinsey & Company.
4. IMF (2024). Gender and Finance: Digital Financial Inclusion and Economic Resilience. International Monetary Fund, Washington, DC.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy ommaboplik va bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha yillik hisobot (2024-2025 yy.). Toshkent: Markaziy bank nashri, 2025. – cbu.uz.
6. Lusardi. A & Mitchell. O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. Journal of Economic Literature.
7. Housel. M (2020). The Psychology of Money: Timeless lessons on wealth, greed, and happiness. Harriman House
8. Klapper. L , Lusardi. A & van Oudheusden. P. (2015). Financial literacy around the world: Insights from the Standard & Poor's Ratings Services Global Financial Literacy Survey. S&P Global.
9. Muradova N.M. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDIU, 2021.
10. Thaler. R. H., & Sunstein. C. R. (2008). Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness. Yale University Press.
11. Bertrand. M. (2011). New Perspectives on Gender. In Handbook of Labor Economics.
12. World Bank (2022). Household Budget Survey of Uzbekistan. Uzbekistan Country Gender Assessment, pp. 31-32. [Olingan manba: documents1.worldbank.org].
13. Murodova, N., & Seitz, W. (2021). Experiments establishing bias gap against women in hiring and wages in Uzbekistan. World Bank Working Paper.